

"O'zkimyosanoat" AJ ishtirokida xalqaro ilmiy haftalik o'tkazilmoqda

// 20.05.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/20260520-1>

Toshkent kimyo-texnologiya institutida "Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot - 2026" xalqaro ilmiy haftaligi o'tkazilmoqda. Tadbir yashil iqtisodiyot, ekologik barqarorlik, innovatsion kimyoviy texnologiyalar va zamonaviy ilm-fan yutuqlariga bag'ishlangan.



Ilmiy haftalik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi, "O'zkimyosanoat" AJ, O'zbekiston ekologik partiyasi hamda qator xalqaro universitet va sanoat korxonalarini hamkorligida o'tkazilmoqda.





Tadbirning ochilish marosimida "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi ishtirok etib, sohada yashil texnologiyalarni joriy etish, innovatsion ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash va ilm-fan hamda sanoat integratsiyasini kuchaytirish masalalariga alohida to'xtaldi.



Tadbirda chet el olimlari, professorlar, ekspertlar hamda sanoat vakillari ishtirok etmoqda.



Ilmiy haftalik doirasida poster sessiyalari, sanoat ko'rgazmalari va xalqaro uchrashuvlar tashkil etilmoqda.



Forum va konferensiyalarda yashil kimyo, nanotexnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni boshqarish, biotexnologiyalar va raqamli texnologiyalarga oid dolzarb mavzular muhokama qilinmoqda.

